



SARAHBORI DUGOH

Abdurahimova Madina

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti (Tasviriy san'at va musiqa ta'limi) kafedrası 1- bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbek milliy merosi bo'lgan " Shashmaqom" va uning vujudga kelishi , ilk bor qanday nomlanganligi , qanday tarkibiy qismlardan tashkil topganligi haqqida yozilgan . O'zbekistonda Shashmaqom shakllanishida , rivojlanishida, o'z o'rnini topishida kimlar o'z hissasini qo'shganligi haqqida bayon etadi.*

Kalit so'z : *Shashmaqom, mushkilot, nasr, sarxbor, hofiz, miyonhat , dunasr, avj*

Аннотация: *В данной статье рассказывается об узбекском национальном наследии «Шашмаком» и его создании, о том, как оно было впервые названо, из каких компонентов состоит. Рассказывается о том, кто способствовал становлению, развитию и становлению Шашмакома в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Шашмаком, мушкилот, проза, сархбор, хафиз, миёнхат, дунаср, авдж.*

Annotatsion: *This article is written about the Uzbek national heritage "Shashmaqom" and its creation, how it was named for the first time, what components it is made of. It tells about who contributed to the formation, development and establishment of Shashmaqom in Uzbekistan.*

Key words: *Shashmaqom, mushkilot, prose, sarkhbor, hafiz, miyonhat,*

Kirish

Musiqaning sirli dunyosiga kirgan odam ,uning mislsiz ummon ekanligini anglashi muqarrardir .Bu ummon-moziydan sadolanishi , tarix davomida zamon va



makon qonuniyatlari negizida shakllanishi ,an'analari komolotida qadr topishi va qadriyatlarga aylanishi , ijodiy degan ilohiy ne'mat asosida , jonli ravishda rivojlanib borishi bilan xarakterlanadi. Har bir davr o'zining musiqiy an'analari bilan izohlanishining ham hikmati shundadir. Musiqaning samoviy yoki ilohiy ekanligi qadimiy manbalarda o'z aksini topgan

O'zbek musiqa san'ati juda uzoq va qadimiy ildizlariga hamda o'zining rang – barang janrlari qadimiy tarixi va an'alariga ega . Tarixiy manbalarning dalolat berishicha eramizdan oldingi davrlardayoq O'rta Osiyo xududida yashagan xalqlarning musiqa madaniyati , cholg'ulari , ijrochilik yo'l va an'analari uzoq Sharq va Yevropa xalqlari madaniyatini shakllanishi va rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi .

Maqom arab tilidan olingan bo'lib - o'rin, joy, makon degan ma'noni anglatadi .Maqom — o'zbek musiqa san'ati va uning bir qismi bo'lib, ma'lum bir uslub va strukturaga ega bo'lgan, musiqa va vokal ijro san'atida keng qo'llaniladigan, musiqiy asarlarning uzun shaklidir. Maqomlar, asosan, milliy musiqamizning an'anaviy shakllaridan biri sifatida, tarixiy davrlarda rivojlanib kelgan va o'zining maxsus uslubi, melodik qoidalari, ritmik va tonallik tizimlariga asoslanadi. Har bir maqom ikki bo'lim cholg'u va ashula bo'limidan iborat bo'lib hozirgi kunda "Mushkulot" va "Nasr" atamalari bilan qo'llaniladi. Xorazmda esa "Mansur "yoki " Chertim yo'li " va "Mazum "yoki "Aytim yo'li " deyiladi.

Maqomning cholg'u bo'limi "Mushkilot" deyiladi . "Mushkilot" arab tilidan olingan bo'lib- "qiyinchiliklar", "og'irliklar" degan ma'noni anglatadi. O'zbek musiqa merosida maqom majmualariga kiritilmagan, biroq turkumli va turkumsiz cholg'u asarlar ham mavjud. Ular yirik shakddagi xalq kuylari, ko'proq maqomlarning cholg'u, ba'zida ashula yo'llari negizida yaratilgan ("Mushkiloti Segoh", "Mushkiloti Dugoh"), Ushbu Maqomlarning yuzaga kelishida asosan surnay maqom yo'llari usulsiz kuy uslubining ta'siri katta.

Mushkilot bo'limi quyidagi 5 ta qismdan iborat :

1. "Tasnif"- tasnif etilgan, ijod etilgan , mukammal asar.



2. “Tarje”- qaytariq, takrorlash , takrorlanuvchi.

3. “Gardun”- falak gardishi, qismat.

4. “Mukammas”- beshlik, beshlangan.

5. “Saqil”- vazmin, og’ir.

“Nasr” atamasi -arabcha so’zdan olingan bo’lib “ko’mak” , “zafar” , “g’alaba” degan ma’nomlarni anglatadi.

Shashmaqom — O’zbekistonda va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida keng tarqalgan, o’ziga xos musiqiy va estetik tizim bo’lib, xalq musiqasi orasida eng mashhur maqom turkumi hisoblanadi. Ushbu musiqiy an’ana asosan O’rta Osiyo va Afg’onistonda tarqalgan va u uzun tarixga ega. “Shashmaqom” atamasi “olti maqom” degan ma’noni anglatadi, chunki Shashmaqom to’rt asosiy maqomdan tashqari, ikki qo’shimcha bo’limni ham o’z ichiga oladi. Shashmaqom butunlay ma’naviy va musiqiy jihatdan o’ziga xosdir va o’zbek xalqi musiqasining eng yuqori san’ati sifatida qadrlanadi.

Shashmaqom olti asosiy maqomdan iborat bo’lib, ular:

1. **Buzruk** —“ katta”, ”ulug‘”, ”buyuk”
2. **Rost** —“ to’g’ri”, “chin” ,”haqiqiy”
3. **Navo** —“kuy”, “mungli kuy”, ”ishq kuyi”
4. **Dugoh**—“ikki o‘rin “, “ikki parda”, “ikki joy”
5. **Segoh** — “uch o‘rin”, “uch joy”, “uch parda”
6. **Iroq**- ma’lum Arab mamlakatining nomi

Shashmaqom deganda, eng avvalo, tovush-pardalarining olti xil ko’rinishdagi mukammal uyushmasi tushunildi. Bu parda uyushmalarining har biri tarkibida ohangdosh (muloyim) bo‘dlarning umumiy ko‘rsatkichi (9) ulardagi tovushnag‘malar soni esa (8) dan ortiq bo’lgan bu pardalar ijod jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta har bir maqomning aytim yo’li “Saraxbor” bilan boshlanadi va shu tarzda kuy- ohangi, tayanch pardalari , namud- avjlari , shakli qolgan ashula qismlari uchun muhim vazifasi bajaradi. “Saraxbor” sar bog’ini – forschadan tarjima qilingan bo’lib-



muhim vazifani bajaradi. “Saraxbor” sar bog’ini – forschada tarjima qilingan bo’lib – bosh degan ma’noni, axbor so’zi- xabarlar, bosh mavzu bosh xabarlar kabi ma’nolarni anglatadi. Saraxbor ketidan taronalar ijro etilib suporish bilan Talqin sho’basiga o’tiladi. Saraxbor qaysi maqomga mansub bo’lsa, shu maqomning nomi bilan qo’shib yoziladi. “Saraxbori Buzruk”, “Saraxbori Rost”, “Saraxbori Navo”, “ Saraxbori Dugoh”, “Saraxbori Segoh”, “ Saraxbori Iroq”, kabilar shular jumlasidandir.

Saraxbor yetuk ishq, pand-nasihat mavzularida mumtoz she’riyatda o’z o’rniga ega bo’lgan Rudakiy, Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Munis g’azal va sherlar namunalari bilan aytiladi. Ularning ichki shakli tuzilishi quyidagilardan iborat:

-Birinch bo’lib kirish qismi bo’lgan cholg’u kuyi yangraydi;

-**hofiz**- ashula aytishni boshlagan vaqtdan daromad qismi boshlanadi. Aksariyat daromad she’riy bayt (ikki misra), ba’zida ikki bayt (to’rt misra) asosida «aytiladi». Va yana unda unli harflar «o», «a» va so’z qo’shimchasi hang ya’ni «yorey», « voyey», « jonimey» va shu kabi so’zlar bilan aytiladi;

-**miyonxat**- ashula yoki kuyning o’rta pardalarida dastlabki tayanch pardadan kvarta, ba’zan kvinta yuqorilab davom ettirishini, rivojlanishini bildiradi;

-**dunasr** – dastlabki daromad kuyini yuqori pardadan aksariyat, bir oktava yuqorilab kuylashda davom etish;

-**avj**- maqom ashulaning eng yuqori pardalarda aytiladigon muhim cho’qqi qismi «⁴.

Dugoh forsha so’zdan olingan bo’lib — ikki o’rin, kki joy, ikki parda, ikki payt degan ma’nolarni anglatadi. O’n ikki maqom tizimidagi sho’ba nomi. Dastlab butun ton oralig’ida joylashgan ikki tayanch pardali ohang ifodasi bo’lib, mazkur tizimdagi Husayniy, Hijoz kabi mukammal tovushqatorlar asosida rivojlantirilgan. Keyinchalik Husayniy maqomining tovushqatoriga singib ketishi natijasida “maqom” nomi bilan yuritila boshlangan. Shashmaqom tarkibiga kiruvchi to’rtinchi maqom sanaladi. Dugoh maqomini Dugoh Husayniy maqomi bilan asosiy farqi shundaki, Dugoh maqomi



Shahshmaqom tarkibiga kiradi. Dugoh Husayniy Farg’ona-Toshkent maqom yo’llariga kiradi.

O’zbekiston an’anviy xonandalik san’atiga , Yunus Rajabiy, Otajalil Nosirov , Ustahalim Ibodov, Rasulqori Mamadaliyev , Komiljon Otaniyozov , Fattoxon Mamadaliyev kabi yetuk ustoz sozanda va xonandalar ulkan hissalarini qo’shgan.

Xulosa

Mening xulosam shuki :

Shashmaqom — bu o’zbek milliy musiqasining eng yuksak va muhim janrlaridan biridir. Uning o’ziga xosligi, nafaqat musiqa, balki unda saqlangan madaniyat va tarixiy merosda ham aks etadi. Shashmaqom nafaqat ijro etilishida, balki uning tuzilishida ham betakrorlikni namoyon etadi, har bir maqom o’zining ritmik, melodik va tonali tasvirlari orqali tinglovchini ruhiy va hissiy jihatdan boyitadi. Shashmaqomning bugungi kunda ham yuqori san’at sifatida qadrlanishi, uning yangi avlodlar uchun ham muhim o’rgatuvchi vosita bo’lib qolayotganini ko’rsatadi.

Shu bois, Shashmaqomning nafaqat musiqiy, balki milliy o’zlikni saqlash va rivojlantirishdagi o’rni juda katta. U nafaqat zamonaviy san’at va madaniyatning bir qismi, balki uning kelajagi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shashmaqomni o’rganish, uni saqlash va rivojlantirish har birimizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

A.Jabborov, S.Begmatov, M.Mazamova “O’zbekiston Musiqasi Tarixi “ , “ Toshkent “ , “Fan va texnologiya” – 2018, 3- bet.

O.Ibrohimov “Maqom asoslari “ , “Toshkent “ , “Turon- Iqbol” – 2018, 5 va 35- bet.